
MAHALLA RAISLARIGA KOMPYUTERLAR TOPSHIRILDI

Keyingi yillarda mahalla fuqarolar yig'inlarining faolligini oshirish, mahalladagi mavjud kamchiliklarga yechim topishda sohaga zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda xodimlarning mehnatini munosib rag'batlantirish va moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash maqsadida Toshloq tumanida mahalla fuqarolar yig'inlariga zamonaviy kompyuter jamlanmasi taqdim etildi.

Bugun Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev tumandagi 9 ta mahalla fuqarolar yig'ini raislariga ushbu kompyuter jamlanmalarini topshirdi.

2024-02-26 09:55:59